

---

## SO'X TUMANIDA JORIY YILNING KUZ MAVSUMIDA 166 000 TO'P KO'CHAT EKISH REJALASHTIRILGAN. REJA 83 FOIZGA YETKAZILDI!



### **So'x tumanida joriy yilning kuz mavsumida 166 000 to'p ko'chat ekish rejalashtirilgan. Reja 83 foizga yetkazildi!**

Tumanimizda "yashil makon" umumimilliy loyihasini amalga oshirish doirasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari topshirig'i asosida "yashil belbog'"lar tashkil etish, tuman hududlarida, ayniqsa, dala chetlarida mevali va manzarali daraxtlar nihollarini ekish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Bugun tumanimizga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi o'rmon xo'jaligi agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi vakillari tomonidan mevali va manzarali, asosan archa va anor daraxti nihollari olib kelindi. Viloyatdan kelgan vakillar va tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev ishtirokida tuman hokimligi binosi oldida archa nihollari o'tqazildi.

Olib kelingan barcha nihollar mahallalarga tarqatib beriladi. Ma'lumot uchun: 2024 yilning kuz mavsumida tumanimizda 166 000 to'p ko'chatlar o'tqazilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kungacha 140 000 donadan ortiq ko'chatlar o'tqazildi va bu 83 foizdan ko'proq demakdir.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**





---

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-27 17:10:10